

## QORAMOLLAR VA OTLARNING OLDINGI OYOQ SUYAKLARINING O'XSHASHLIKLARINI VA FARQLARINI O'RGANISH

**Seypullaev A.K**

Samarqand Davlat veterinariya medisinasi,  
Chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filali "Veterinariya" kafedrasida assistenti

**Reynazarova Nargiza Ernazarovna**

Samarqand Davlat veterinariya medisinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Nukus filali talabasi

**Annotasiya.** Qishloq xo'jaligidagi qoramollar va otlarning oldingi oyoq suyaklarining tuzilishi, joylashishi, ularning hayvonlardagi o'zaro farqlarini o'rganish.

**Annotation.** The structure of the forelegs of cattle and horses in agriculture and their location interaction in animals to learn the differences.

**Аннотация.** Изучение строения костей грудной конечности крупного рогатого скота и лошадей, расположение и их отличие у других видов животных.

**Kalit so'zlar:** kurak suyagi, yelka suyagi, tirsak suyagi, bilak va bilakuzuk suyaklari.

**Kirish.** Xo'jalikdagi qoramol va otlarning oldingi oyoq suyaklarining qanaqa tuzilganligini, joylashishini, lotin atamalarida aytilishini o'rganish.

Qoramollar va otlarning kurak, elka, bilak, tirsak, bilakuzuk, kaft va barmoq suyaglarining tuzilishlarini o'rganish.

Oldingi oyoqlar kamari uy hayvonlarida bitta kurak suyagidan iborat bo'lib, qolganlari yo'qolib ketgan. Oldingi oyoqlarning erkin suyaklariga yelka, tirsak, bilak, bilakuzuk, kaft va barmoq suyaklari kiradi.

Kurak suyagi-scapula, uchburchak shakldagi plastinkasimon suyakdir. Qoramollarda akromial o'simta yaxshi rivojlangan. Kurak tog'ayi boshqa hayvonlarnikiga qaraganda ancha keng bo'ladi. Qorako'l qo'ylarida ham shunga o'xshash, biroq biroz tekis bo'ladi.

Otlar kurak suyagining bo'gim chuqurchasida kesigi-incisura gleniodalis bo'ladi. Akromial o'simtasi bo'lmaydi.

Yelka suyagi - os brachi s. humeras uzun nay shaklida bo'lib, kurak suyagining pastki qismida joylashadi. Qoramol va qorako'l qo'ylarining yelka suyagi kaltaroq, lekin yug'oniroq bo'ladi. Undagi o'simtalar, do'ngliklar yaxshi rivojlangan.


Otlarning yelka suyagi birmuncha uzun va do'ngliklari rivojlangan. Suyak boshining o'rta chetida sinovial chuqurcha-lossa synovialis bo'ladi.

Bilak suyagi-os radius hamma hayvonlarda yaxshi rivojlangan.

Qoramollarning bilak suyagi yaxshi rivojlangan, tirsak suyagi biroz kuchsizroq. Tirsak suyagining pastki qismi ingichkalashgan.

Otlarning bilak suyagi yaxshi rivojlangan, lekin tirsak suyagi redukiyalashgan, uning faqat yuqori tomoni yaxshi rivojlangan. Tirsak suyagining pastki qismi yupqa plastinkaga aylangan bo'ladi.

Bilakuzuk suyaklari-ossa carpi bir qancha mayda suyaklardan hosil bo'lib, bilak, tirsak va kaft suyaklarining o'rtasida ikki qator bo'lib joylashadi.



38- расм. Отнинг ўнг оёқ билагузук суяклари:

1 — билак суяги; 2, 3, 4 — 2н, 3н, 4н урта ва ички пай эрик-  
ларни; 5 — билагузук суяги; 6 — оралик билагузук суя-  
ги; 7 — тирс оқнинг билагузук суяги; 8, 9, 10 — билла-  
гузукнинг иккинчи, учинчи ҳамда тўртинчи ва бешинчи  
суяклари; 11 — қўшимча суяк; 12 — метатарзаль-кафт суяги;  
13 — учинчи кафт суяги; 14 — орқа томон суяги

Qoramollarda va qorako'l qo'ylarining bilakuzuk suyaklari yuqori qatorda to'rtta, pastki qatorda ikkita: yuqori qatordagi suyaklar notekis, g'adir-budir, pastki qatorining ikkinchi va uchinchi bilakuzuk suyaklari bir-biriga qo'shilgan bo'ladi.

Otlarda yuqori qatorda to'rtta har xil shaklli, pastki qatorda uchta, ba'zan to'rtta bilakuzuk suyagi bor, oraliq suyak nuqatga o'xshash bo'lib, ba'zan uchramaydi. Uchinchi suyak boshqalariga qaraganda kengroq, to'rtinchisi beshinchisiga qo'shilgan bo'ladi.

Kaft suyaklari-ossa metacarpi uzun, nay shaklida bo'lib, nay shaklida. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar kaft suyagining III-IV lari birlashib, nay shaklidagi bitta suyakni hosil qiladi. Kaft suyagining pastki qismida ikkita blok bo'lib ular III-IV barmoq suyaklariga birlashadi.

Otlarning kaft suyagi uchta: II-III-IV suyaklardan iborat. Uchinchi kuchli rivojlangan, II-IV lari rudiment shaklidagi nayza suyaklardir. III kaft suyagining yuqori qismi tekis. II-IV kaft suyaklari grifel suyaklar deyiladi. Bu suyaklarning yuqori tomoni yug'oniroq, pastki tomoni ingichka bo'ladi.

Barmoq suyaklari-ossa digitorium har qaysi barmoqda uch bo'g'imdan iborat bo'ladi. Birinchi barmoq suyagi tushoq, ikkinchisi syumaloq va uchinchisi tuyoqsimon suyak deyiladi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar va chochqalarda III-IV barmoq bir xil, II-V barmoqlar esa kichikroq bo'ladi. Otlarning barmoq suyaqlari biroz uzunroq, bo'g'imlarining yonidagi pay birikuvchi bo'rtiklar yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Ikkinchi barmoq suyaklari-phalanx secunda boshqa suyaklarga qaraganda yumaloqroq. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar va cho'chqalarda ikkinchi barmoq suyaklari assimetriya bo'ladi.

Uchinchi barmoq suyaklari - phalanx tertia oldingi oyoq suyaklarining eng oxirgisi hisoblanib, turli hayvonda har xil shaklda bo'ladi. Bu kavsh qaytaruvchi hayvonlar va cho'chqalarda tuyoqcha, otlarda tuyoq, panjali hayvonlarda tirnoq deyiladi. Otlarda tuyoq suyagi devor tovon qismlariga bo'linadi. Tovu yuzasi - facies soleare ga bukuvchi barmoq muskul birlashadi.

Xulosa. Qoramollar va otlarning oldingi oyoq suyaklarining o'zaro o'xshashliklari, farqlarini, joylashishini, tuzilishlarini o'rgandik. Oldingi oyoqlar kamari uy hayvonlarida bitta kurak suyagidan tuzilgan. Oldingi oyoqlarning erkin suyaklariga yelka, tirsak, bilak, bilakuzuk, kaft va barmoq suyaklaridan iborat bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.X.Narziev "Hayvonlar anatomiyasi" Toshkent 1986.
2. N.B.Dilmurodov "Hayvonlar anatomiyasi" fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari Toshkent 2014.